

## **RESPUBLIKADA SENDVICH PANELLARI ISHLAB CHIQARISH ISTIQBOLLARI**

**Berdiqulov A.M.**

i.f.n. dots.

Jizzax politexnika instituti

**Mamirova Zoxida Furqat qizi**

magistratura talabasi

Jizzax politexnika instituti

Iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi.

**Sh. Mirziyoyev**

### **ANNOTATSIYA**

Yangi turdag'i eksportga yo'naltirilgan qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini oshirish va ushbu mahsulotlarga bo'lgan ichki ehtiyojni qondirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa mahalliy va xorijiy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash borasida keng imkoniyatlar yaratadi.

**Kalit so'zlar:** Sendvich-panel, ichlab chiqarish, qurilish, mahalliy xom-ashyo, ob'ektlar, qurilish materiallari, MAXPRODUCT.

### **PROSPECTS OF MANUFACTURING OF SANDWICH PANELS IN THE REPUBLIC**

## ABSTRACT

Special attention is paid to increasing the volume of production of new types of export-oriented building materials and meeting the domestic demand for these products. This creates ample opportunities for supporting local and foreign entrepreneurs.

**Key words:** Sandwich panel, production, construction, local raw materials, objects, building materials, MAXPRODUCT.

Qurilish materiallarini ishlab chiqarishda mahalliy lashtirish darajasini oshirish iqtisodiyotni yanada barqaror va izchil rivojlanishida, uning tashqi omillarga bog'liqligini pasaytirishda, ishlab chiqirish jarayonlariga yangi samarali texnologiyalarning joriy etilishini jadallashtirishda hamda qo'shimcha yangi ish o'rinalarining yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yurtimizning har bir hududida jadal sur'atlarda qurilish ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, qo'p qavatli binolar, zamonaviy turdag'i yangi uylar, ko'priklar, yangi yo'nalishdagi metro qurilishi, avtomobil va temir yo'llar, ijtimoiy va iqtisodiy soha ob'ektlari qurilmoqda. Ushbu qurilish ishlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi o'z navbatida, qurilish materiallari arzon va sifatli bo'lishini taqazo etadi. Oxirgi paytda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan 30 dan ortiq turdag'i qurilish materiallari quruq qurilish aralashmalari, gipsokarton, yog'och asosidagi plitalar, devorlar va shiftlar uchun plastik panellar, sendvich panellar, alyumin-kompozit panellar "alyukobond", alyuminiy radiatorlar, keramik va polimer plitalar, polimer trubalar, fitinglar kabi qurilish materiallari ishlab chiqarilmoqda.


Ayni vaqtida qurilish materiallarini ishlab chiqarishga yangi zamonaviy texnologiyalarni hamda ilm-fan yutuqlarini joriy etish, chuqur qayta ishlashni tashkil etish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash orqali zamonaviy, jahon standartlari talablariga javob bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish mumkinligi hamda qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasida jahon bozorlaridan munosib o'rin

egallayotganligi bu qurilish materiallarining sifati va jahon standart talablariga muvofiqligini aks ettiradi.

Devor va tom yopish sendvich-panellarini ishlab chiqaruvchi hamda mahalliy va chet el bozoriga sotish bilan shug‘ullanuvchi respublikamizda bir qancha korxonalar mavjud. Sendvich-panellari – tez quriladigan binolar va inshootlarning asosiy qismi hisoblanadi. Panellar komponentlari sifatida bir-biri bilan elimlangan metaldan qilingan listlar va penopolistiollar issiqlikni saqlovchi sifatida xizmat qiladi. Sendvich-panellar tsexlar va omborlar, muzlatgichxonalar vasovutkichlar, qushxona va molxonalar, sport inshootlari va angarlar, boshqa binolarni barpo etishga mo‘ljallangan. Sendvich-paneldan qilingan binolarning ichi qishda issiq, yozda esa salqin bo‘ladi.

Mahalliy bozorlarda sendvich panelga bo‘lgan talabni to‘la qondirish maqsadida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-2021 yillarda umumiyligi 445 mlrd so‘m bo‘lgan 10 ta loyiha ishga tushirish rejalashtirilgan. Natijada ishlab chiqarish quvvati yiliga 2,8 mln. kv. metrga ortadi. Ayni paytda respublikamizda sendvich panel ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar soni jami 32 ta bo‘lib, uning eng katta qismi Toshkent shahrida joylashgan. Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida ham ushbu yo‘nalishda yirik korxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Shu bilan birga Respublikada mahalliy va chet el bozoriga eksport bilan shug‘ullanuvchi MAXPRODUCT kompaniyasi o‘z mahsulotlari narxlari arzonlashtirib ushbu innovatsion qurilish materialining asosiy afzalliliklari bo‘yicha zavodning ishlab chiqarish quvvati bir necha yillardan buyon mahalliy ishlab chiqaruvchi penopolistirol (penoplast) va bazalt (mineral vata) bilan to‘ldirilgan uch qatlamlili sendvich-panellar, shuningdek, qo‘sishma elementlar bilan O‘zbekiston bozorida o‘z faoliyatini yuritmoqda va chet el qurilish bozorlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri etkazib berishni amalga oshirmoqda. Ishlab chiqarishning xususiy ekanligi kompaniyaga eng maqbul narxlarni taklif etish va realizatsiya qilingan mahsulotlarning yuqori darajadagi sifatini kafolatlash imkonini beradi. Ushbu xususiyatlar, shuningdek,

muvaffaqiyatli qurilishni amalga oshirish va mahsulotdan uzoq muddat davomida foydalanish garovidir. Zavodda 50 nafardan ortiq yuqori malakali mutaxassislar xorijdan keltirilgan zamonaviy uskunalaridan foydalangan holda faoliyat olib boradilar, ishlab chiqarish jarayoni esa bir daqiqaga ham to‘xtamaydi kechayu-kunduz 3 smenada olib boriladi. Uch qatlamli sendvich-panellar keng assortimentda va turli xil ranglar palitrasida, xalqaro sifat sertifikatining barcha mezonlariga muvofiq buyurtma asosida tayyorlanadi. Malakali mutaxassislar o‘z hamkorlarini ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida – hisob-kitob va maslahat berishdan tortib, to yakuniy mahsulotni chiqarishgacha qo‘llab-quvvatlaydilar. Ta’kidlash joizki, MAXPRODUCT o‘z mahsulotlarini respublikaning barcha hududlariga yetkazib berish bo‘yicha xizmatlarni taqdim etadi va shu orqali o‘z hamkorlari uchun yanada qulay bo‘lgan xarid shartlarini ta’minlaydi. Devor sendvich-panellari turli xil ob’ektlar qurilishida qurilish material sifatida ishlatiladi hamda g‘isht, yog‘och va beton bloklarga munosib muqobil material hisoblanadi. Chunki ta’mirlash vaqtida ular binoning asosiy tuzilishiga zarar yetkazmay almashtirishni yuqori aniqlikda amalga oshirishga imkon beradi. [7]



Kompaniya devor sendvich-panellaridan tashqari xizmat ko'rsatishi, sifati va xizmat qilish muddatlariga ko'ra devor sendvich-panellaridan qolishmaydigan tom yopish mahsulotlarini ham ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Tom yopish sendvich-panellari ob'ektlarning tomini qurish uchun ishlatiladi va har qanday ob-havo sharoitlarida o'rnatish jarayonini tezda bajarilishiga imkon beradi. Ushbu turdag'i sendvich-panellar uch qatlamga ega har ikki tomonidan polimer qoplamali sinklangan po'lat, to'ldiruvchi – mineral tolali plita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, agar sendvich-panellarni boshqa qurilish materiallari bilan taqqoslaydigan bo'lsak, unda mineral vata bilan to'ldirilgan uch qatlamlı sendvich-panellar olovga mutlaqo chidamliligi va ortiqcha namlikni singdirib olish xususiyati bilan xavfsiz qurilish materiallaridan biri hisoblanadi. Sendvich-panellar yopishtirish usuli yordamida tayyorланади, shuning uchun ularning germetikligi qishda sovuq va shamol o'tishiga imkon bermaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)**

1. Sendvich panellarni loyihalash va qurish bo'yicha ko'rsatmalar.
2. GOST 15.901-91. Ishlab chiqarish tuzilmalari, qurilish mahsulotlari va materiallari uchun mahsulotlarni ishlab chiqish va ishga tushirish tizimi.
3. Sattorov Z.M. Ekologiya. – T.:Sano-standart, 2018. – 362 b.
4. Sattorov Z.M. Qurilish ekologiyasi. – T.:Sano-standart, 2017. – 364 b.
5. <https://www.uzsm.uz>
6. <https://www.lex.uz>
7. <https://www.maxproduct.uz>